



**JIZZAX VILOYATINING O'RTACHA SHO'RLANGAN TUPROQ  
SHAROITIDA, YANGI NAV VA TIZMALARINING MORFO-BIOLOGIK,  
QIMMATLI XO'JALIK BELGILARI.**

**Turapov.S.X.**

*mustaqil tadqiqotchi, Jizzax politexnika instituti*

**Rasulov.D.I.**

*Qishloq xo'jaligi fanlari falsafa doktori(PhD), dotsent  
Paxta seleksiyasi urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyasi ITI*

**Xojambergenov.N.M.**

*Qishloq xo'jaligi fanlari doktori(DSc), professor  
Paxta seleksiyasi urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyasi ITI*

Ushbu maqolada Jizzax viloyatining o'rtacha sho'rlangan tuproqlarida o'simlik bo'yi, birinchi terim va umumiy terim, viltga chidamliligi bo'yicha 18 ta o'rta tolali navlar ishtirokida tanlov nav sinovi ma'lumotlari keltirilgan. S-6524 tipi bo'yicha IV tip va Sulton tipi bo'yicha V tip tolalari andoza sifatida xizmat qildi. Jizzax viloyati o'rta sho'rlangan tuproq iqlimiga mosligini o'rganish tajribasi nav sinovi ko'chatzorida 18 ta nav bir xil agrotexnika sharoitida parvarishlab, IV tip bo'yicha S-6524, V tip bo'yicha Sulton navlariga nisbatan taqqoslab o'rganildi va quyidagi natijalar olindi:

Paxta hosildorligini oshirishning asosiy omillardan biri turli tuproq iqlim sharoitlariga mos, serhosil, tezpishar, tola chiqimi va sifati yuqori, vilt kasalligi bardoshli bo'lgan navlarni joriy etish va urug'chilik ishlarini to'g'ri tashkil etishdan iborat.

2022 yil 7 iyuldagi "Paxta hosildorligini oshirish, paxta yetishtirishda ilm va innovatsiyalarni joriy qilishning qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida" PK-308-son karoriga asosan paxta hosildorligini oshirish bo'yicha yangi tizimni joriy qilish, paxta yetishtirishda ilm va innovatsiyalarga asoslangan urug'chilik, nav tanlash, hududlarda yuqori hosil berayotgan navlarni taxlil qilib, ularning super elita va elita urug'larini ko'paytirish, ilg'or agrotexnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, Koraqalpog'iston respublikasi va viloyatlar tuproq-iqlim sharoitiga mos g'o'za navlarini yaratish hamda joylashtirish lozimligi belgilab berildi [1].

Yukoridagilardan kelib chikkan xolda olib borilgan tadqiqotning asosiy maksadi Respublikadagi institutlarda yaratilgan yangi va istiqbolli go'za navlarini keng ishlab chiqarish sinovlarini tashkil etish, viloyatlarning tuproq-iqlim sharoitlariga mos serhosil, ertapishar, kasalliklarga chidamli go'za navlarini tanlash, navdorlikni oshirish, ularning birlamchi urug'chiligini tashkil etish xamda



tuproq sharoitlarini o'rganish holda maqbul yetishtirish agrotexnologiyalarini ishlab chiqishdan iborat [2].

Jizzax viloyati o'rta sho'rlangan tuproq iqlimiga mosligini o'rganish tajribasi nav sinovi ko'chatzorida 18 ta nav bir xil agrotexnika sharoitida parvarishlab, IV tip bo'yicha S-6524, V tip bo'yicha Sulton navlariga nisbatan taqqoslab o'rganildi va quyidagi natijalar olindi: Tajribalarni o'tkazish umumqabul qilingan usulda bajarildi. Miqdoriy belgilar bo'yicha olingan natijalar eng kichik farq (EKF) B.A. Dospexov buyicha (1985) statistik tahlildan o'tkazildi [3].

**Tez pisharlik.** Mazkur belgi bo'yicha nav tizmalarda unib chiqishdan birinchi ko'sak ochilguncha bo'lgan davr 114 kundan 119 kungacha bo'lganligi kuzatildi. Andoza navimizda bu ko'rsatkich 115 kuni tashkil etdi. Tez pisharlikda faqat S-9091 navi andoza navdan 1-kun tez pisharligi ma'lum bo'ldi, 5 ta yangi L-2017, T-302, T-804, L-317 va T-300 tizmalar andoza nav bilan bir kunda pishib yetildi, qolgan 12-ta yangi nav va tizmalar andoza navga nisbatan 1-4 kunga kech pishib yetilganligi aniqlandi [4].

**O'simlik bo'yi.** Tajribamizda ishtirok etgan yangi nav va tizmalarda o'simlik balandligi nav mo'alliflari tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra 100-140 sm atrofida ekanligi ma'lum bo'ldi. Eng past bo'yli L-302 va T-300 tizmalarida kuzatilib 100-110 sm tashkil qildi. Bu ko'rsatkich bo'yicha yuqori ko'rsatkich T-7290, T-7291 (135-140 sm) tizmalariga to'g'ri keldi. Sinovda ishtirok etgan boshqa navlar balandligi 110 va 135 sm oralig'ida bo'ldi [5].

**Hosildorlik.** Birinchi terim 30-chi sentyabr kuni bajarilgan bo'lib, barcha navlardan 4-ta takrorda terib olindi, natijalar birlashtirildi va 1ga maydandagi hosil aniqlandi. Tajribamizda ishtirok etgan navlarda 1-chi terim hosildorligi 27,2 s/ga (T-7290) L-7290 27,3 s/ga (T-772 va T-729) dan 33,4 (S-9091) s/ga oralig'ini tashkil qildi. Hosildorlik bo'yicha yuqori ko'rsatkich S-9091 tizmasida kuzatildi. Andoza S-6524 naviga nisbatan foyizlar hisobida T-7290 100%, T-772 va T-7293 tizmalari 100,4% ko'rsatkichga S-9091 122,8%, T-804 115,1%, T-2121 112,1% ga yuqori hosil berdi. Qolgan yangi nav va tizmalar bu ko'rsatkich bo'yicha andoza navga nisbatan 103,3 dan 111,7% oralig'ida hosil berganligi ma'lum bo'ldi [6].

**Umumiy hosili.** Umumiy terim yakunlari bo'yicha tajribada ishtirok etayotgan namunalar andoza S-6524 (35,6 s/ga) naviga nisbatan turlicha ko'rsatkichga ega bo'ldi. Andozaga nisbatan yuqori hosildorlik T-9091 tizmasida (39,1 s/ga), T-7293 (38,5 s/ga), L-2-(k) (38,5 s/ga), T-804 (38,3 s/ga), T-2121 (38,3 s/ga), T-058 (38,1 s/ga), T-7290 (37,9 s/ga), L-300 (37,6 s/ga) va hokoza navlarda kuzatildi. Bu andoza S-6524 naviga nisbatan 105,6% dan 109,8% gacha hosildorligini ko'rsatadi. Shu bilan birga qolgan T-772 (100,6%), T-302 (101,7 s/ga) yangi tizmalar ham andoza navdan yuqori hosildorlikga erishganligi aniqlandi.



**Viltga chidamlilik.** Paxta seleksiyasi urig'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy taqtiqot institutga qarashli 36-konturda yaratilgan sun'iy fonda texnologiya laboratoriyasi xodimlari tomonidan vilt kasalligiga chidamlilik darajasi sinovdan o'tkazildi. Tadqiqotlar natijasida barcha namunalar umumiy va kuchli zaralanish bo'yicha ondoza navlarga nisbatan yuqori chidamlilik darajasini namoyon etdi.

jadval

**Jizzax viloyati o'rta sho'rlangan tuproqlariga mos g'o'za navlarini tanlash va urug'ini dastlabki ko'paytirish tajribasida ishtirok etgan namunalarining xo'jalik va texnologik ko'rsatgichlari.**

№	Nav va tizmalar	O'simlik bo'yi (sm)	Tezlasharligi(kun)	Birinci terim		Umimiy xosildorlik		Vilt bilan rlanishi %	
				8,10	St nisbatan %	30,10	St nisbatan %	Umumiy	Kuchli
1	S-6524 st	125	115	27,2	St	35,6	St	6,4	31,2
2	Sulton st	130	116	30,1	St	38,3	St	4,2	20,4
3	L-2017	125	115	29,2	107,4	37,5	105,3	3,7	17,3
4	T-058	130	117	28,1	103,3	38,1	107,0	4,0	19,7
5	T-7291	145	118	28,5	104,7	36,2	104,5	1,3	11,7
6	S-9091	130	114	33,4	122,8	39,1	109,8	1,7	10,8
7	T-302	120	115	28,6	105,1	36,2	101,7	2,9	17,6
8	T-7293	140	119	27,3	100,7	38,5	108,1	1,7	13,3
9	T-804	130	115	31,3	115,1	38,3	107,6	2,8	10,1
10	T-2121	130	117	30,5	112,1	37,4	105,1	3,4	14,3
11	L-317	130	115	30,2	111,0	36,9	103,6	2,2	12,7
12	8-(D)	120	118	29,6	108,8	37,2	104,5	3,4	14,5
13	L-300	125	115	30,3	111,4	37,6	105,6	1,8	17,4
14	L-2-(K)	130	117	28,7	105,5	38,5	108,1	1,5	18,5
15	L-7290	140	117	27,2	100,0	37,9	106,5	2,1	9,8
16	TT-6	130	117	28,3	104,0	38,1	107,0	3,1	8,7
17	T-7288	145	118	27,4	100,7	36,8	103,4	2,4	7,8
18	T-7289	135	116	28,1	103,3	37,3	104,8	2,7	7,1
19	Bax-100	130	117	29,4	108,1	36,9	103,6	3,1	11,1
20	T-772	130	118	27,3	100,4	35,8	100,6	2,5	10,9
Nsr		10,3	9,1	1,7	000	1,8	000	0,3	1,1

**Xulosa:** Tadqiqotlar olib borish natijasida andoza S-6524 va Sulton navlariga nisbatan qimmatli xo'jalik belgilari yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan g'o'zaning yangi S-9091 (39,1 s/ga), T-7293 (38,5s/ga), L-2-(k) (38,5 s/ga), T-804 (38,3s/ga), T-



2121(38,3 s/ga), T-058 (38,1 s/ga),T-7290 (37,9 s/ga),L-300 (37,6 s/ga) nav va tizmalari Jizzax viloyatining o'рта sho'rlangan tuproqlariga mos ekanligi va kelgusida birlamchi urug'chilik ishlarini olib borish tavsiya etiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Методика государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур Москва-1983 ,48-54 с
2. Доспехов Б.А. методика полевого опыта, Москва,1985,126-145 с.
3. Bobonazarov A., Allakuliyev B., Avtonomov Vik., Nizamov S., Boboyev Ya.A., Aytjanov U.YE. - g'o'zaning gommoz kasalligiga chidamli navlarni yaratish muammolari to'g'risida. g'o'za genetikasi, seleksiyasi, urug'chiligi va bedachilik masalalari to'plami, Toshkent-2002, 56 b.
4. Muminov S., Muminova B. Mezon tezpisharlik va hosildorlik, Jurnal O'zbekiston qishloq xo'jaligi-2005, №4, 13 b.
5. Hojambergenov N., Rasulov D. Yangi o'рта tolali g'o'za tizmalarining 2019 yildagi katta nav sinash natijalari. O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi jurnali agroilm ilmiy ilovasi. Toshkent, - 2020 y.
6. Hojambergenov N., Rasulov D., B.J.Allakuliyev. G.HIRSUTUM L.turiga mansub yangi g'o'za tizmalarini kichik nav sinash ko'chatzorida qimmatli xo'jalik belgilarini o'rganish. "Qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda dolzarb masalalar va uni rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy - amaliy konferensiyasi materiallari to'plami 10-11 yanvar, 2020 yil. B-537-540.